

**Dolzarb ilmiy tadqiqot natijalariga oid monografiya va kitoblar chop etish
xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-maydagi 260-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining jamg'armasi to'g'risida"gi nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) mablag'lari hisobidan dolzarb ilmiy tadqiqot natijalariga oid monografiya va kitoblarni chop etish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

ilmiy asar – dolzarb ilmiy tadqiqot natijalarini o'zida aks ettirgan kitob shaklidagi nodavriy bosma nashr;

qo'lyozma – nashr qilish uchun tayyorlangan, mazmunan va tahririy jihatdan yakuniy holatga keltirilgan ilmiy asarning elektron matni;

nashrning o'ziga xoslik ko'rsatkichi – qo'lyozma matnining boshqa manbalardan ko'chirilmaganligi va uning muallifi (hammualliflari) tomonidan mustaqil ravishda yozilganligi yoki qayta ishlangan qismining foiz hisobida baholangan qiymati;

talabgor – ilmiy asarni Jamg'arma mablag'lari hisobidan chop etish uchun ariza bilan murojaat qiluvchi Fanlar akademiyasi tizimidagi tashkilotda faoliyat olib boruvchi jismoniy shaxs yoki Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi;

buyurtmachi – Fanlar akademiyasi tizimida faoliyat olib borayotgan yoki Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosining ish joyi bo'lgan (jumladan, o'rindoshlik asosida) yuridik shaxs;

taqriz – ilmiy asarga tanqidiy-ijobiy baho berilgan, matbuotda chop etilmaydigan va yozma shaklda taqdim etiladigan hujjat;

bo'linma – Fanlar akademiyasining tegishli fan yo'nalishi bo'yicha arizalarni qabul qilish va dastlabki ko'rib chiqish uchun mas'ul tarkibiy bo'linmasi;

ilmiy-texnik kengash – Fanlar akademiyasida belgilangan tartibda tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha tarkibi tasdiqlangan kollegial organ;

rejalashtirilgan qiymat – moliyalashtirish uchun ariza berish bosqichida ochiq va ishonchli manbalardagi bozor narxlarini o‘rganish asosida hisoblangan chop etish xizmatlarining taxminiy qiymati;

maxsus axborot tizimi – ilmiy asarni chop etish bo‘yicha arizalarni taqdim etish, qabul qilish, ko‘rib chiqish va hisobini yuritishga mo‘ljallangan dasturiy ta‘minot.

3. Ilmiy asarni Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan chop etish talabgorning maxsus axborot tizimi orqali qabul qilingan arizasiga asosan amalga oshiriladi.

Maxsus axborot tizimidan obyektiv sabab tufayli foydalanish imkoni bo‘lmaganida ariza va unga ilova qilinadigan hujjatlar Fanlar akademiyasiga tegishli buyurtmachining rasmiy xati bilan taqdim etiladi.

4. Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan quyidagi ilmiy asarlarni chop etish uchun arizalar qabul qilinadi:

monografiyalar, shu jumladan fundamental va amaliy tadqiqotlar natijalarini o‘z ichiga olgan monografiyalar hamda yosh olimlarning birinchi monografiyalari;

manbashunoslik nashrlari, shu jumladan qadimiy yozma manbalarning tavsifi, tadqiqi, transliteratsiyasi, ilmiy-tanqidiy matni, ilmiy-izohli tarjimasi va faksimile nashrlari;

dolzarb ilmiy tadqiqot natijalarini umumlashtiruvchi **sohaviy va terminologik lug‘atlar**;

ilmiy ensiklopedik nashrlar;

ilmiy kataloglar, shu jumladan muzey fondlarida saqlanayotgan kolleksiyalar va ashyolarga bag‘ishlangan ilmiy-izohli kataloglar;

fundamental ilmiy loyihalar natijalari asosida tayyorlangan ko‘p jildli **akademik nashrlar**;

O‘zbekiston ilm-fani yutuqlarini xalqaro ilmiy hamjamiyatga taqdim etishga qaratilgan xorijiy tillardagi **ilmiy kitoblar**;

dolzarb ilmiy tadqiqot natijalarini o‘zida aks ettirgan **ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar**;

dolzarb ilmiy tadqiqot natijalarini tizimli umumlashtirgan va kitob shaklidagi nodavriy nashr sifatida tayyorlangan **ilmiy to‘plamlar**, shu jumladan xalqaro ahamiyatga molik mavzular bo‘yicha **konferensiya materiallari**.

5. Chop etish xarajatlari moliyalashtiriladigan ilmiy asarlar ro'yxati (keying o'rinlarda – ro'yxat) Fanlar akademiyasi prezidentining buyrug'i bilan tasdiqlanadi va ro'yxat Fanlar akademiyasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

6. Ilmiy asarlarni chop etish xarajatlarini moliyalashtirish Kengash tomonidan tasdiqlangan Jamg'armaning tegishli yil uchun daromad va xarajatlari yillik parametrlari hamda qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan daromadlar va xarajatlar smetasida mazkur maqsadlar uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

Ro'yxatga kirgan biroq, uni chop etish xarajatlarini Jamg'armaning joriy davr uchun daromadlar va xarajatlar smetasi doirasida moliyalashtirish imkoni bo'lmagan taqdirda tegishli mablag'larni buyurtmachiga o'tkazib berish Jamg'armaning kelgusi davr uchun rejalashtirilgan mablag'lari doirasida amalga oshiriladi.

7. Ilmiy asarni Jamg'arma mablag'lari hisobidan chop etish ushbu Nizomning ilovasidagi sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

2-bob. Arizalarni qabul qilish, ko'rib chiqish va chop etish xarajatlari moliyalashtiriladigan ilmiy asarlar ro'yxatini tasdiqlash

8. Fanlar akademiyasi har chorak yakunidan besh kun avval ilmiy asar Jamg'arma mablag'lari hisobidan chop etish bo'yicha arizalarni qabul qilishni rasmiy veb-sayt, maxsus axborot tizimi va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarda e'lonni joylashtiradi.

9. Arizalar maxsus axborot tizimi orqali har chorakning birinchi oyi 25 sanasiga qadar qabul qilinadi.

Agar ushbu sana dam olish yoki bayram kuniga to'g'ri kelsa, ariza taqdim etish muddatining oxirgi kuni undan keyingi birinchi ish kuni hisoblanadi.

Arizaning qabul qilingan vaqti uning axborot tizimida yoki Fanlar akademiyasining elektron hujjat aylanishi tizimida ro'yxatga olingan vaqti bilan aniqlanadi.

10. Ariza maxsus axborot tizimida kelishish uchun buyurtmachining moliyaviy-iqtisodiy masalalar uchun mas'ul bo'linmasi, ilmiy kengash kotibi va tashkilot rahbariga yuboriladi.

11. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

qo'lyozma;

qo'lyozmani chop etishga tavsiya etilgan kamida ikkita taqriz;

rejalashtirilgan qiymatni asoslovchi hujjatlar;

nashrning o'ziga xoslik ko'rsatkichini tasdiqlovchi hisobot;

ilmiy asarni tarqatish varaqasi;

buyurtmachining ilmiy asar chop etilganidan so'ng uni tarqatish varaqasida ko'rsatilgan tashkilotlarga yetkazilishi to'g'risida kafolat xati;

ilmiy asarni bosma shaklda chop etishga tavsiya qilish to'g'risida buyurtmachining ilmiy kengashi qaroridan ko'chirma.

12. Arizada ilmiy asarni chop etish boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish uchun murojaat etilmaganligi ko'rsatiladi.

Agar ilmiy asarni chop etish Jamg'arma mablag'laridan boshqa manbalar hisobidan xam moliyalashtirish rejalashtirilgan bo'lsa, ushbu xarajatlar rejalashtirilgan qiymatni asoslovchi hujjatlarida alohida xarajat sifatida ko'rsatiladi.

13. Qo'lyozma Microsoft Wordda tayyorlangan fayl shaklida taqdim etiladi.

14. Taqrizlarning ko'pi bilan bittasi buyurtmachida faoliyat olib borayotgan shaxs tomonidan beriladi.

Taqriz ilmiy asarning hammualliflaridan biri, talabgorning bevosita rahbari yoki uning bevosita bo'ysunuvidagi shaxs tomonidan berilishi kabi manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'ladigan holatlarga yo'l qo'yilmaydi.

15. Rejalashtirilgan qiymatni asoslovchi hujjatlar potensial ijrochilarning tijorat takliflari va raqobat varaqasidan iborat bo'ladi.

Rejalashtirilgan qiymat buyurtmachining moliyaviy-iqtisodiy masalalar uchun mas'ul bo'linmasi tomonidan davlat xaridlari elektron tizimi va boshqa ochiq axborot manbalaridagi narxlar, boshqa ishonchli manbalar va (yoki) potensial ijrochilarning tijorat takliflarini o'rganish asosida aniqlanadi.

Moliyaviy-iqtisodiy masalalar uchun mas'ul bo'linma rejalashtirilgan qiymatni asoslovchi hujjatlarni maxsus axborot tizimiga yuklaydi va talabgor tomonidan kiritilgan arizani kelishib beradi.

16. Qo'lyozma nashrning o'ziga xoslik ko'rsatkichi maxsus axborot tizimiga axborot almashanuvi (integratsiyasi) bo'yicha bog'langan antiplagiat axborot tizimi orqali aniqlanadi.

Bunda, nashrning o'ziga xoslik ko'rsatkichini aniqlash xarajatlari talabgor tomonidan amalga oshiriladi.

17. Qo'lyozma nashrning o'ziga xoslik ko'rsatkichi kamida 70 foizni tashkil etgan holatda qabul qilinadi.

Antiplagiat axborot tizimi orqali nashrning o'ziga xoslik ko'rsatkichi baholash yakuniy natija bo'lib hisoblanmaydi va tegishli manbani ko'rsatmasdan o'zlashtirish, ilmiy ma'lumotlarni soxtalashtirish yoki buzib ko'rsatish alomatlari tahlili ilmiy-texnik kengash tomonidan baholanadi.

Manbashunoslik, ilmiy-tanqidiy, faksimile, lug'at, ensiklopedik, katalog va akademik nashrlarda o'ziga xoslik ko'rsatkichi talabgorga tegishli ilmiy-tahliliy matn qismi bo'yicha aniqlanadi.

Nashrning o'ziga xoslik ko'rsatkichini aniqlashda qonunchilik hujjatlaridagi matn, arxiv va birlamchi manbalardan belgilangan tartibda keltirilgan matnlar, bibliografik ro'yxatlar va boshqa texnik jihatdan istisno qilinishi lozim bo'lgan qismlar hisoblanmaydi.

18. Ilmiy asarni bosma shaklda chop etishga tavsiya qilish to'g'risida buyurtmachining ilmiy kengashi qarori ilmiy asarning bosma nashrga tayyorligi, uni chop etish zarurati, ilmiy ahamiyati va maqsadga muvofiqligi ko'rsatiladi.

Ilmiy kengash qarori bilan quyidagilar tasdiqlanadi:

- a) ilmiy asarni tarqatish varaqasi;
- b) ilmiy asarning quyidagilar ko'rsatilgan **tavsifi**:
 - nomi va muallifi (mualliflari);
 - nashr turi;
 - chop etiladigan nusxalar soni;
 - hajmi (betlar soni);
 - formati;
 - tili;
 - jildlar soni;
 - jildlash turi;
 - bosma usuli;
 - rangli yoki oq-qora bosma ekani;
 - qog'oz va muqovaning asosiy texnik xususiyatlari;
 - zarur bo'lgan boshqa texnik parametrlar;
 - rejalashtirilgan qiymat;

19. Ilmiy kengash kotibi ilmiy kengashning tegishli qarorini maxsus axborot tizimiga yuklaydi va talabgor tomonidan kiritilgan arizani kelishib beradi.

20. Buyurtmachining tashkilot rahbari bilan kelishilgan ariza va unga ilova qilingan hujjatlar maxsus axborot tizimi orqali tegishli bo‘linma tomonidan qabul qilinadi va o‘n besh kun muddatda quyidagi talablarga rioya etilganligiga ko‘rib chiqiladi:

ariza va unga ilova qilingan hujjatlarning to‘liqligi va belgilangan talablarga muvofiq rasmiylashtirilganligini;

ma’lumotlarning o‘zaro muvofiqligi;

rejalashtirilgan qiymatning ilmiy kengash qarori bilan tasdiqlangan ilmiy asarning **tavsifiga** mosligi.

21. Bo‘linma tomonidan ariza va unga ilova qilingan hujjatlarda kamchiliklar aniqlangan taqdirda tegishli ularni maxsus axborot tizimida qayd etilgan holda talabgorga qaytaradi.

Qayd etilgan kamchiliklar bartaraf etilgan va o‘n kuni ichida qayta taqdim etilgan ariza va unga ilova qilingan hujjatlar tegishli bo‘lim tomonidan qabul qilinadi.

22. Bo‘linma tomonidan ko‘rib chiqilgan ariza va unga ilova qilingan hujjatlar har chorakning ikkinchi oyini o‘ninchi sanasiga tegishli ilmiy-texnik kengashga muhokama qilish va qaror qabul qilish uchun kiritiladi.

23. Ilmiy-texnik kengash ariza va qo‘lyozmani kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n besh ish kuni ichida ko‘rib chiqadi.

24. Ilmiy-texnik kengash kiritilgan hujjatlarni muhokama qilish va ko‘rib chiqishda xolislik, shaffoflik, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan shaxs tegishli hujjatlarni muhokama qilish, baholash va u bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etmaydi.

Uning ishtirok etmaganligi va rad etish (o‘zini o‘zi rad etish) holati majlisi bayonnomasida qayd etiladi.

25. Ilmiy-texnik kengashining majlisi bayonnomasi bilan chop etishga tavsiya etilgan qo‘lyozmalar ro‘yxati tasdiqlanadi va Fanlar akademiyasi Jamg‘arma faoliyatini tashkil etish bo‘limiga (keyingi o‘rinlarda – Ishchi organ) tegishli buyruq loyihasini tayyorlash uchun yuboriladi.

Ro‘yxatda ilmiy asarlar ular bo‘yicha arizalarning kelib tushish vaqtiga qarab ketma-ketlikda tuziladi va quyidagilar ko‘rsatiladi:

ilmiy asarning nomi;

muallifi (mualliflari);

buyurtmachi;
rejalashtirilgan qiymat.

3-bob. Chop etish uchun mablag'lardan foydalanish

26. Ishchi organ hamda Fanlar akademiyasining moliya va buxgalteriya hisobi uchun mas'ul bo'linmalari o'z vakolatlari doirasida buyurtmachining tegishli daromadlar va xarajatlar smetasiga zarur o'zgartirishlar kiritadi va g'aznachilik ijrosini ta'minlash hamda moliyalashtirishni rasmiylashtirish uchun qonunchilikda talab etiladigan hujjatlarni tayyorlaydi.

Buyurtmachi uchun alohida shaxsiy g'azna hisobvarag'ini ochish zarurati mavjud bo'lganda, bunday hisobvaraqlar byudjet va g'aznachilik to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli iqtisodiyot va moliya organi hamda G'aznachilik xizmati qo'mitasi tizimi orqali ochish uchun Fanlar akademiyasining moliyaviy masalalarga mas'ul bo'linma tomonidan zarur hujjatlar tayyorlanadi.

27. Ilmiy asarni chop etish uchun Jamg'arma mablag'laridan ajratilgan mablag' Fanlar akademiyasining buxgalteriya hisobi uchun mas'ul bo'linma tomonidan buyurtmachining tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazib beriladi.

28. Buyurtmachi uning shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazib berilgan mablag' doirasida bosma xizmatlarni xarid qilishi O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va davlat xaridiga oid qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xarid hujjatlarida bosma xizmatlarning texnik va sifat xususiyatlari ilmiy kengash qarori bilan tasdiqlangan ilmiy asarning tavsifiga muvofiq belgilanadi.

29. Bosma xizmatlarni xarid qilish to'g'risida e'lon joylashtirilgan (yoki qayta joylashtirilgan) kundan ikki kun muddatda buyurtmachining davlat xaridini amalga oshirishga mas'ul xodimi tomonidan xaridning lot raqami maxsus axborot tizimiga kiritadi.

30. Davlat xaridi natijasida buyurtmachi bosma xizmatlarni yetkazib beruvchi (ijrochi) bilan qonunchilikda belgilangan tartibda shartnoma tuziladi.

Tuzilgan shartnoma va uning ijrosiga (hisobvaraqlar-faktura va boshqa tegishli hujjatlar) oid ma'lumotlar maxsus axborot tizimida qayd etib boriladi.

31. Chop etilgan ilmiy asar buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan tarqatish varaqasiga muvofiq tegishli tashkilotlarga yetkaziladi.

Ilmiy asarni qabul qilish dalolatnomalari talabgor tomonidan maxsus axborot tizimiga kiritiladi.

32. Ilmiy asarni chop etishda foydalanilmagan mablag'lar Fanlar akademiyasining Jamg'arma mablag'lari jamlanadigan byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvarag'iga qonunchilikda belgilangan tartibda qaytariladi.

Foydalanilmagan mablag'larni boshqa maqsadlarga, boshqa ilmiy asarga yoki boshqa xarajatlarni qoplashga yo'naltirishga yo'l qo'yilmaydi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

33. Fanlar akademiyasi Ichki audit xizmati bo'linmasi ilmiy asarni chop etish uchun Jamg'arma mablag'laridan o'tkazilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq monitoringni o'tkazadi.

Monitoring hujjatlarini o'rganish, qo'shimcha ma'lumotlar talab qilish, joyiga chiqqan holda o'rganish va boshqa nazorat shakllari orqali amalga oshiriladi.

34. Ilmiy-texnik kengash ko'rib chiqish uchun kiritilgan ariza yuzasidan qo'shimcha ma'lumot va hujjatlarni so'rab olishga haqlidir.

35. Talabgor va buyurtmachi ushbu Nizomni qo'llash jarayonida qabul qilingan qarorlar, harakatlar yoki harakatsizlik ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

36. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Dolzarb ilmiy tadqiqot natijalariga oid
monografiya va kitoblarni chop etish
xarajatlarini moliyalashtirish tartibi
to'g'risidagi nizomga
ilova

**Dolzarb ilmiy tadqiqot natijalariga oid monografiya va kitoblarni
chop etish xarajatlarini moliyalashtirish
SXEMASI**

Bosqichlar	Mas'ullar	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati
I bosqich	Ishchi organ	Arizalarni qabul qilinishini e'lon qilish.	Har chorak yakunidan besh kun avval
II bosqich	Talabgor, Buyurtmachi	Maxsus axborot tizimi orqali ariza berish. Arizani buyurtmachining moliyaviy-iqtisodiy masalalar uchun mas'ul bo'linmasi, ilmiy kengash kotibi va tashkilot rahbari bilan kelishish. Arizaga tegishli hujjatlarni ilova qilish.	Har chorakning birinchi oyi 25- sanasiga qadar
III bosqich	Bo'linma	1. Ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqish. 2. Ko'rib chiqish natijalarini ilmiy-texnik kengashga kiritish.	15 kun Har chorakning ikkinchi oyini 10-sanasiga qadar
IV bosqich	Ilmiy-texnik kengash	Hujjatlarni ko'rib chiqish va majlis bayonnomasi bilan chop etishga tavsiya etilgan qo'lyozmalar ro'yxatini tasdiqlash.	15 kun
V bosqich	Ishchi organ	Ilmiy asarni chop etishni moliyalashtirish to'g'risida buyruq loyihasini tayyorlash.	10 kun
VI bosqich	Ishchi organ, moliya va buxgalteriya, bo'linmalar, talabgor	1. Buyurtmachining tegishli daromadlar va xarajatlar smetasiga zarur o'zgartirishlarni kiritish va g'aznachilik ijrosini ta'minlash hamda moliyalashtirishni rasmiylashtirish uchun qonunchilikda talab etiladigan hujjatlarni tayyorlash. 2. Buyurtmachining tegishli shaxsiy g'azna hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazib berish.	Belgilangan muddatlarda